



BADIIY MATNNING LOKUTIV QATLAMI: LISONIY SHAKLDAN POETIK MAZMUNGA (Jamol Kamol she'riyati misolida)

Akramova Surayo Renatovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD).
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1753>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 1

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

lokutiv qatlam, badiiy matn, poetik mazmun, lingvopoetika, semantik transformatsiya, kontekst, lisoniy birlik, poetik sintaksis, Jamol Kamol

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada badiiy matnning lokutiv qatlami poetik mazmunni yuzaga keltiruvchi lisoniy asos sifatida tadqiq etiladi. Tadqiqotning nazariy yo'nalishi badiiy matndagi lisoniy shakllarning kontekst ta'sirida yangi semantik qimmat kasb etishi hamda estetik mazmun hosil qilish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan. Jamol Kamol qalamiga mansub she'riy matnlar misolida leksemalar, sintaktik qurilmalar va poetik murojaatlarning mazmuniy transformatsiyasi lingvopoetik nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari badiiy matnning lokutiv qatlami shakliyl birliklar yig'indisi emas, balki poetik mazmunning yuzaga kelishini ta'minlovchi dinamik semantik tizim ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, shoirning individual so'z tanlovi va badiiy ifoda vositalari poetik mazmunni shakllantirishning muhim omillari sifatida asoslanadi. Shuningdek, maqolada lokutiv qatlamning poetik mazmunni shakllantirishdagi semantik, sintaktik va pragmatik imkoniyatlari o'zaro bog'liq holda yoritiladi. Badiiy matnda lisoniy birliklarning poetik aktuallashuvi ularning bevosita lug'aviy ma'nosidan tashqari kontekstual, ekspressiv va ramziy ma'nolarni hosil qilishi bilan izohlanadi. Bunda so'zning tanlanishi, uning boshqa birliklar bilan birikishi, sintaktik pozitsiyasi, takroriy qo'llanishi va matndagi kommunikativ vazifasi poetik mazmunning yuzaga kelishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy lingvopoetik qarashlarda ham badiiy matnni tahlil qilishda semantik bosqichdan lisoniy birliklarning badiiy-funksional vazifasini aniqlash bosqichiga o'tish muhimligi qayd etiladi. Jamol Kamol she'riyati misolida lisoniy birliklarning poetik aktuallashuvi milliy-madaniy mazmun bilan ham uzviy bog'lanishi ko'rsatiladi. Shoir tomonidan qo'llangan murojaat shakllari, baholovchi birliklar, sintaktik parallelizmlar va obrazli ifodalar o'zbek tilining nafaqat kommunikativ vosita, balki milliy o'zlik, tarixiy xotira va ma'naviy qadriyatlarni ifodalovchi estetik hodisa sifatidagi xususiyatlarini ochib beradi. Shu jihatdan lokutiv qatlamni tahlil qilish orqali muallifning individual poetik uslubi, so'z tanlash mahorati va lisoniy vositalardan foydalanish strategiyasini aniqlash imkoniyati kengayadi.

Maqolada, shuningdek, poetik mazmunning shakllanishida sintaktik qurilmalarning faol ishtirokiga e'tibor qaratiladi. Gaplarning qisqa va ixcham tuzilishi, parallel konstruksiyalar, undalma, undov va buyruq-istak shakllarining uyg'unlashuvi she'riy nutqning emotsional ta'sirchanligini oshirishi bilan birga, mazmunning bosqichma-bosqich kuchayib borishini ta'minlaydi. Natijada lokutiv qatlamning leksik va grammatik unsurlari alohida-alohida emas, balki yagona poetik tizim tarkibida faoliyat yuritadi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 1

KEYWORDS

locative layer, literary text, poetic content, linguopoetics, semantic transformation, context, linguistic unity, poetic syntax, Jamol Kamol

ANNOTATION

This article studies the locative layer of a literary text as a linguistic basis for the formation of poetic content. The theoretical direction of the research is aimed at identifying the mechanisms by which linguistic forms in a literary text acquire new semantic value under the influence of context and create aesthetic content. Using the example of a poetic text by Jamol Kamol, the semantic transformation of lexemes, syntactic devices, and poetic appeals is analyzed from a linguopoetic perspective. The results of the research show that the locative layer of a literary text is not a set of formal units, but a dynamic semantic system that ensures the emergence of poetic content. The poet's individual choice of words and means of artistic expression are also justified as important factors in the formation of poetic content. The article also highlights the semantic, syntactic, and pragmatic possibilities of the locative layer in the formation of poetic content in an interconnected manner. The poetic actualization of linguistic units in a literary text is explained by the fact that, in addition to their direct lexical meaning, they also form contextual, expressive and symbolic meanings. In this case, the choice of the word, its combination with other units, syntactic position, repeated use and communicative function in the text directly affect the emergence of poetic content. Modern linguopoetic views also note the importance of moving from the semantic stage to the stage of determining the artistic and functional function of linguistic units in the analysis of a literary text. The example of Jamol Kamol's poetry shows that the poetic actualization of linguistic units is also inextricably linked with national-cultural content. The forms of address, evaluative units, syntactic parallelisms and figurative expressions used by the poet reveal the features of the Uzbek language not only as a communicative tool, but also as an aesthetic phenomenon expressing national identity, historical memory and spiritual values. In this regard, the analysis of the locative layer expands the possibility of determining the author's individual poetic style, word choice skills, and strategy for using linguistic means. The article also pays attention to the active participation of syntactic devices in the formation of poetic content. The short and concise structure of sentences, parallel constructions, the combination of exclamation, exclamation and command-desire forms increase the emotional expressiveness of poetic speech, and ensure the gradual strengthening of the content. As a result, the lexical and grammatical elements of the locative layer operate not separately, but as part of a single poetic system.

Kirish

Badiiy matn tilning estetik imkoniyatlari to'liq namoyon bo'ladigan murakkab kommunikativ tizim bo'lib, unda lisoniy shakl va poetik mazmun o'zaro uzviy munosabatda namoyon bo'ladi. She'riy nutqda qo'llangan har bir leksik, grammatik va sintaktik birlik muayyan badiiy vazifani bajaradi hamda matnning semantik yaxlitligini ta'minlashda

ishtirok etadi. Shu sababli zamonaviy lingvopoetik tadqiqotlarda badiiy matnni faqat mazmun nuqtai nazaridan emas, balki uni yuzaga keltiruvchi lisoniy mexanizmlar asosida tahlil qilishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Lokutiv qatlam badiiy matnning bevosita lisoniy tuzilishini tashkil etuvchi birliklar majmui sifatida poetik mazmunning shakllanishida tayanch bosqich hisoblanadi. Mazkur qatlamga kiruvchi leksemalar,

grammatik shakllar, sintaktik qurilmalar va ularning matn ichidagi o'zaro munosabati muallif badiiy niyatining til vositalari orqali ro'yobga chiqishini ta'minlaydi. Binobarin, poetik mazmun tayyor holda mavjud bo'lmaydi; u aynan lisoniy shakllarning kontekstual faollashuvi, semantik kengayishi va o'zaro bog'lanishi natijasida yuzaga keladi. Lingvopoetik tadqiqotlarda lisoniy birlikning badiiy funksiyasi uning lug'aviy ma'nosi bilan cheklanmaydi. Muayyan poetik kontekstda so'z o'zining dastlabki nominativ vazifasidan tashqari baholovchi, ramziy, ekspressiv va konseptual ma'no qatlamlarini ham hosil qiladi. Natijada badiiy matnning lokutiv qatlami semantik dinamikani boshqaruvchi faol tizim sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv badiiy matnni til va tafakkur o'zaro uyg'unlashgan hodisa sifatida talqin etish imkonini beradi. Jamol Kamol she'riyati o'zbek poetik tafakkurida tilning badiiy imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan ijodiy makonlardan biridir. Shoir asarlarida milliy qadriyatlar, tarixiy xotira, ma'naviy tafakkur va ona tiliga munosabat sodda, ammo semantik jihatdan serqatlam lisoniy vositalar orqali ifodalanadi. Ayniqsa, til mavzusidagi she'rlarida muallif so'zning ichki estetik quvvatini ochishga intiladi, natijada oddiy til birliklari poetik umumlashma darajasiga ko'tariladi. Tadqiqot materiali sifatida tanlangan she'riy parchada:

*Sen jahondin bahramand,
sendin jahon ham bahramand.
Bahramandlik qomating
etdi raso, o'zbek tilim.
Faxr etar ko'rk-u kamolingni
ko'rib o'g'ling Jamol.
Chiq jahonning minbariga,
marhabo, o'zbek tilim! [9.87]*

Til obraz sifatida gavdalaniriladi va unga insoniy sifatlar yuklanadi. Bunda "bahramand", "qomat", "ko'rk-u kamol", "minbar", "marhabo" kabi birliklar lug'aviy ma'nodan chiqib, poetik mazmunni hosil qiluvchi semantik markazlarga aylanadi. She'rning badiiy ta'sirchanligi aynan lokutiv qatlamni tashkil etuvchi lisoniy vositalarning o'zaro uyg'unligi orqali ta'minlanadi.

Jamol Kamol she'riyati misolida badiiy matnning lokutiv qatlami lisoniy shakldan poetik mazmunga o'tish jarayonining asosiy omili sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida poetik ma'noning yuzaga kelishida leksik tanlov, sintaktik tashkil va kontekstning o'rni lingvopoetik nuqtai nazardan yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili

Badiiy matnning lisoniy xususiyatlarini o'rganish zamonaviy tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mazkur masala lingvopoetika, matn lingvistikasi, semantika va pragmatik lingvistikada keng tadqiq etilgan. Badiiy matnda til birliklari oddiy kommunikativ vazifani bajarish bilan cheklanmay, estetik, ekspressiv, baholovchi, ramziy va konseptual mazmunlarni ham ifodalashi mumkin. Shu sababli badiiy matnning poetik xususiyatlarini aniqlashda uning tarkibidagi lisoniy birliklarning shakli va mazmuniy tomonlarini birgalikda tahlil qilish muhimdir. Ayniqsa, leksemalarning kontekstual ma'nosi, sintaktik qurilmalarning poetik vazifasi, murojaat shakllari va takroriy konstruksiyalarning badiiy mazmunni shakllantirishdagi o'rni aniqlash dolzarb masalalardan hisoblanadi.

N.D.Arutyunova til va inson o'rtasidagi munosabatni, til vositasida borliqning ifodalanishi hamda lisoniy birliklarning kommunikativ jarayondagi mazmuniy imkoniyatlarini chuqur o'rgangan olimlardan biridir. Uning qarashlarida til birliklarining mazmuni inson tafakkuri, kommunikativ vaziyat va qo'llanish muhiti bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'lishi ta'kidlanadi [1, 15–32-b.]. Mazkur yondashuv badiiy matndagi so'zlarning ma'nosini faqat lug'aviy izoh bilan chegaralamasdan, ularning konkret kontekstdagi funksional xususiyatlarini aniqlash zarurligini ko'rsatadi. Poetik matnda umumiste'moldagi birliklar muayyan kontekst ta'sirida qo'shimcha semantik va estetik qatlamlarga ega bo'lishi mumkin. Demak, lisoniy birlikning poetik qiymatini belgilashda uning matndagi o'rni va boshqa birliklar bilan munosabati muhim ahamiyat kasb etadi.

E. Benvenist tilning nutq jarayonidagi faoliyatini va insonning nutq orqali o'z munosabatini ifodalash imkoniyatlarini tadqiq etgan. Uning til va nutq, kommunikativ subyekt, murojaat hamda shaxs munosabatlariga oid qarashlari badiiy matndagi murojaat konstruksiyalarining mohiyatini ochishda muhim nazariy asos bo'la oladi [2, 286–296-b.]. Badiiy matnda "men", "sen" munosabatining yuzaga kelishi muallif va murojaat obyekti o'rtasidagi kommunikativ aloqani kuchaytiradi. Ayniqsa, mavhum tushunchalarning inson sifatida tasavvur qilinishi va ularga bevosita murojaat qilinishi poetik personifikatsiyani yuzaga keltiradi. Shu jihatdan badiiy matndagi undalma shakllari nafaqat grammatik, balki kommunikativ va estetik vazifani ham bajaradi.

Yu.M.Lotman poetik matnning strukturaviy tashkil etilishi, undagi takror, parallelizm, ritm, sintaktik qurilish va semantik munosabatlarning

badiiy mazmun shakllanishidagi roliga alohida e'tibor qaratadi [3, 18–36-b.]. Uning qarashlariga ko'ra, she'riy matndagi har bir shakliy element boshqa elementlar bilan munosabatga kirishib, yagona poetik tizimni yuzaga keltiradi. Bu nuqtayi nazardan lisoniy shakl poetik mazmundan ajralgan holda mavjud bo'lmaydi. Masalan, sintaktik parallelizm bir xil yoki o'xshash grammatik tuzilmalarning takrorlanishini ta'minlash bilan birga, mazmunning ikki tomonlama yoki qarama-qarshi yo'nalishda rivojlanishiga ham xizmat qilishi mumkin. Shu sababli poetik matndagi sintaktik qurilmalarni tahlil qilish uning mazmuniy tuzilishini anglashning muhim vositalaridan biridir.

L.A.Novikov badiiy matnni yaxlit strukturaviy-semantik tizim sifatida o'rganish zarurligini asoslaydi. Uning yondashuvida matn tarkibidagi turli darajadagi lisoniy birliklar o'zaro aloqaga kirishib, yagona mazmuniy va estetik tizimni shakllantiradi [4, 41–58-b.]. Ushbu qarash badiiy matnning lokutiv qatlamini o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Chunki lokutiv qatlam faqat leksemalardan iborat bo'lmay, grammatik shakllar, sintaktik konstruksiyalar va ularning o'zaro semantik munosabatlarini ham qamrab oladi. Natijada poetik mazmun alohida birlikning ma'nosidan emas, balki butun matn doirasidagi funksional munosabatlardan kelib chiqadi.

O.G.Revzina badiiy matn tilini diskursiv va kommunikativ jihatdan talqin qilishga katta e'tibor beradi. Uning qarashlarida badiiy matnning mazmuni muallif, matn va o'quvchi o'rtasidagi murakkab munosabatlar tizimida shakllanishi ko'rsatiladi [5, 27–45-b.]. Bunday yondashuv badiiy matndagi lisoniy birliklarning faqat grammatik yoki lug'aviy xususiyatlarini emas, balki ularning kommunikativ maqsadini ham hisobga olishni talab etadi. Ayniqsa, undovlar, murojaatlar, buyruq-istak shakllari va baholovchi birliklar poetik nutqning ekspressivligini kuchaytiruvchi vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

U.Eko badiiy matn mazmunining shakllanishida o'quvchining interpretativ faoliyatiga katta ahamiyat beradi. Uning qarashlarida matn turli belgilar va ma'no imkoniyatlarini mujassamlashtirgan murakkab tizim sifatida talqin qilinadi [6, 7–23-b.]. Shu nuqtayi nazardan badiiy matndagi lisoniy birlikning poetik mazmuni faqat uning lug'aviy ma'nosiga bog'liq emas. Kontekst, boshqa birliklar bilan munosabat va o'quvchining matnni qabul qilishi natijasida yangi semantik qatlamlar yuzaga keladi. Masalan, oddiy predmet yoki makon nomi poetik kontekstda ramziy mazmun kasb etishi, muayyan ijtimoiy yoki ma'naviy tushunchani ifodalashi mumkin.

G.N.Leech poetik tilning leksik, grammatik va sintaktik xususiyatlarini tahlil qilish orqali lisoniy shakllarning estetik funksiyalarini ochib beradi [7, 1–18-b.]. Uning yondashuvi she'riy nutqda grammatik shakllarning ham mustaqil poetik vazifaga ega bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, takror, parallelizm, sintaktik ixchamlik, murojaat va fe'l shakllari she'rning mazmuniy hamda emotsional rivojini ta'minlaydi. Bunday qarashlar badiiy matnning lokutiv qatlamini faqat leksik birliklar majmui sifatida emas, balki grammatik va sintaktik vositalar bilan birgalikda faoliyat yuritadigan yaxlit tizim sifatida baholashga imkon beradi.

M.A.K.Halliday va R.Hasan til, kontekst va matn o'rtasidagi munosabatni tizimli-funksional nuqtayi nazardan izohlaydi. Ularning qarashlariga ko'ra, matnning mazmuniy yaxlitligi til birliklarining o'zaro bog'lanishi hamda ularning muayyan kontekstda qo'llanishi bilan ta'minlanadi [8, 10–23-b.]. Mazkur yondashuv badiiy matndagi lisoniy birliklarning kontekstual ma'nosini aniqlashda muhimdir. Chunki poetik matnda so'zning mazmuni ko'pincha uning bevosita lug'aviy ma'nosidan kengroq bo'ladi. So'zning boshqa birliklar bilan birikishi, sintaktik o'rni va matnning umumiy mazmuni uning poetik semantikasini belgilaydi.

O'zbek tilshunosligida B.Yo'ldoshevning matnning lingvistik xususiyatlarini o'rganishga oid qarashlari badiiy matnni yaxlit tizim sifatida tadqiq etish uchun muhim nazariy asos yaratadi [10]. Matnning mazmuniy va strukturaviy yaxlitligi, lisoniy birliklarning o'zaro bog'lanishi hamda matn ichidagi semantik aloqalar badiiy asarni lingvistik tahlil qilishda muhim omillar sifatida qaratiladi. Ushbu yondashuv asosida poetik matndagi takrorlar, sintaktik parallelizmlar, murojaat shakllari va leksik bog'lanishlarning umumiy mazmunni shakllantirishdagi vazifasini aniqlash mumkin.

Sh.Safarovning pragmatik lingvistik qarashlari badiiy matndagi lisoniy birliklarning kommunikativ maqsadini ochib berishda muhim ahamiyatga ega. Til birliklarining nutqiy vazifasi, kommunikativ maqsad, kontekst va nutq ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning mazmun shakllanishidagi roli pragmatik yondashuv asosida izohlanadi [11]. Badiiy matnda grammatik jihatdan buyruq, murojaat yoki undov shaklida kelgan birliklar kontekst ta'sirida ramziy, ekspressiv yoki baholovchi mazmun kasb etishi mumkin. Shu sababli poetik matnni tahlil qilishda grammatik shakl va uning kommunikativ-pragmatik vazifasini birgalikda ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

N.Mahmudov til hodisalarini tadqiq etishda shakl va mazmunning o'zaro munosabatini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [12]. Uning ilmiy

qarashlari lisoniy birliklarning funksional imkoniyatlarini chuqurroq anglashga yordam beradi. Badiiy matnda aynan bir birlik turli kontekstlarda turlicha mazmun kasb etishi mumkinligi ham shakl va mazmun munosabatining murakkabligini ko'rsatadi. Shuning uchun poetik birliklarning xususiyatlarini faqat formal jihatdan tavsiflash yetarli emas; ularning matndagi funksional, semantik va estetik vazifalarini ham aniqlash talab etiladi.

Jamol Kamol she'riyati misolida lisoniy shaklning poetik mazmunga aylanish jarayoni ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Shoimning ona tiliga bag'ishlangan she'riy parchasida "bahramand", "qomat", "ko'rk-u kamol", "minbar", "marhabo" kabi birliklar o'zining dastlabki lug'aviy ma'nosidan tashqari qo'shimcha poetik mazmun kasb etadi [9, 87-b.]. Masalan, "qomat" so'zining tilga nisbatan qo'llanishi personifikatsiyani yuzaga keltiradi; "ko'rk-u kamol" birikmasi tilning estetik va ma'naviy boyligini ifodalashga xizmat qiladi; "minbar" esa kontekstda nufuz, e'tirof va jahon miqyosidagi mavqe ramziga aylanadi. Demak, poetik mazmun lisoniy birliklarning kontekstual faollashuvi orqali yuzaga keladi.

Mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirganda, badiiy matnning lisoniy tabiati bir necha o'zaro bog'liq jihatlarni qamrab olishi ko'rinadi. Bir tomondan, lisoniy birliklarning lug'aviy va grammatik xususiyatlari mavjud bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular kontekst ta'sirida qo'shimcha semantik va estetik qimmat kasb etadi. Sintaktik qurilmalar esa mazmunning izchil rivojlanishi, ritmik yaxlitlik va emotsional kuchayishni ta'minlaydi. Pragmatik omillar esa lisoniy shakllarning muallif maqsadiga muvofiq talqin qilinishiga imkon beradi.

Shu jihatdan badiiy matnning lokutiv qatlamini o'rganish faqat matnda qo'llangan til birliklarini sanab o'tish bilan cheklanmasligi lozim. Uning asosiy mohiyati lisoniy shakllarning poetik mazmuni yuzaga chiqarish jarayonidagi funksional imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Mavjud adabiyotlarda badiiy matnning strukturasi, semantikasi, pragmatikasi va poetik tili alohida yo'nalishlarda keng yoritilgan bo'lsa-da, lisoniy shakldan poetik mazmunga o'tish jarayonini lokutiv qatlam doirasida yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Jamol Kamol she'riyati materiallari asosida leksik birlik, sintaktik qurilma, murojaat shakli va kontekstning o'zaro ta'sirini bir butun holda tahlil qilish shoir poetikasining lisoniy asoslarini yanada chuqurroq ochib berishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda badiiy matnning lokutiv qatlamini va uning poetik mazmun shakllanishidagi funksional imkoniyatlarini aniqlash uchun lingvopoetik, semantik hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini badiiy matnda qo'llangan lisoniy birliklarning shakliy xususiyatlari bilan ularning estetik va mazmuniy vazifalarini o'zaro bog'liq holda o'rganish tamoyili tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy tahlil metodi orqali she'riy matn tarkibidagi leksik, grammatik va sintaktik birliklarning qo'llanish xususiyatlari aniqlandi. Ushbu birliklarning matn doirasida qanday badiiy vazifa bajarishi hamda poetik mazmuni shakllantirishdagi ishtiroki lingvopoetik yondashuv asosida izohlandi. Semantik tahlil yordamida lisoniy birliklarning dastlabki lug'aviy mazmuni va badiiy kontekst ta'sirida hosil qilgan yangi ma'no qatlamlari o'rganildi. Xususan, so'zlarning nominativ ma'nodan poetik ma'noga o'tish jarayoni, obrazlilikni yuzaga keltiruvchi semantik imkoniyatlari hamda baholovchi xususiyatlari tahlil qilindi. Shuningdek, kontekstual tahlil metodi orqali she'riy matnda qo'llangan birliklarning o'zaro munosabati, ularning badiiy yaxlitlikni ta'minlashdagi roli va muallif estetik maqsadi bilan bog'liqligi aniqlandi. Mazkur yondashuv lisoniy shaklning poetik mazmun hosil qilish mexanizmlarini ochib berishga xizmat qildi. Tadqiqot materiali sifatida Jamol Kamolning ona tili mavzusidagi she'riy matn olindi. Unda qo'llangan murojaat shakllari, baholovchi birliklar, obrazli ifodalar hamda sintaktik qurilmalarning poetik vazifalari tahlilning asosiy yo'nalishini tashkil etdi.

Natijalar

Jamol Kamolning ona tiliga bag'ishlangan she'riy parchasida poetik mazmun, avvalo, lokutiv qatlamni tashkil etuvchi leksik birliklarning o'zaro semantik munosabati asosida shakllanadi. She'ring boshlang'ich misralari:

Sen jahondin bahramand,

Sendin jahon ham bahramand.

O'zaro muvozanat tamoyiliga asoslangan sintaktik va semantik paralelizmni yuzaga keltiradi. Har ikki misrada takror qo'llangan "bahramand" leksemasi oddiy lug'aviy ma'noni ifodalash bilan cheklanmay, o'zbek tilining inson va jamiyat hayotidagi o'rmini baholovchi poetik birlik sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur leksemaning ikki marotaba qo'llanishi she'ring ritmik yaxlitligini ta'minlash bilan bir qatorda, mazmunning bosqichma-bosqich kengayishiga xizmat qiladi. Birinchi misrada tilning jahon madaniyati va sivilizatsiyasidan oziglanishi ifodalansa, ikkinchi misrada ushbu munosabat teskari yo'nalishda talqin

qilinib, o'zbek tilining ham jahon madaniy makoniga munosib hissa qo'shuvchi qadriyat ekanligi ta'kidlanadi. Shunday qilib, bitta leksik birlikning takroriy qo'llanishi poetik mazmunni dinamik rivojlantiruvchi vositaga aylanadi. Keyingi misralarda:

Bahramandlik qomating

etdi raso, o'zbek tilim.

Bu misrada "qomat" leksemasining qo'llanishi poetik mazmunni yangi semantik bosqichga olib chiqadi. Lug'aviy jihatdan inson gavdasini anglatuvchi mazkur birlik badiiy kontekstda abstrakt tushuncha – **til** bilan bog'lanib, personifikatsiya hosil qiladi. Natijada til tirik mavjudot sifatida tasavvur qilinadi, uning taraqqiyoti esa «qomatning raso bo'lishi» metaforasi orqali ifodalanadi. Bu holat lisoniy shaklning poetik obrazga aylanish jarayonini yaqqol namoyon etadi.

She'ring keyingi qismida uchraydigan "ko'rk-u kamol" birikmasi ham baholovchi semantikani kuchaytiruvchi vosita hisoblanadi. Mazkur birikma tilning tashqi jozibasi bilan bir qatorda, uning ichki boyligi, tarixiy taraqqiyoti va ma'naviy salohiyatini umumlashtiruvchi poetik mazmunni yuzaga chiqaradi. Shu tariqa bitta birikma bir nechta semantik qatlarni mujassamlashtirib, matnning estetik ta'sirchanligini oshiradi.

Lingvopoetik nuqtayi nazardan qaralganda, mazkur leksik birliklarning barchasi lokutiv qatlamning tarkibiy unsurlari sifatida matnning shakliy tuzilishini hosil qiladi. Biroq ularning poetik qiymati aynan kontekstual munosabatlar orqali namoyon bo'ladi. Demak, poetik mazmun alohida so'zning o'zida emas, balki uning boshqa birliklar bilan semantik va sintaktik aloqaga kirishishi natijasida shakllanadi.

She'riy matnda lokutiv qatlamning poetik imkoniyatlari murojaat konstruksiyalarida ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Jamol Kamolning tahlil qilinayotgan she'rida takror qo'llangan "o'zbek tilim" birikmasi grammatik jihatdan undalma vazifasini bajarsa-da, uning matndagi funksiyasi sintaktik chegaradan ancha kengdir. Ushbu birlik she'ring mazmuniy markazini tashkil etib, barcha poetik tasvir va baholarning bir nuqtaga jamlanishini ta'minlaydi. Undalma odatda muloqot ishtirokchisiga murojaatni ifodalasa, mazkur she'rida murojaat obyekti sifatida **til** tanlangan. Bu tanlov natijasida mavhum tushuncha badiiy tafakkur doirasida jonlantiriladi va nutqning faol ishtirokchisiga aylantiriladi. Til insoniy fazilatlar bilan uyg'unlashtirilgani sababli o'quvchi uni nafaqat milliy qadriyat, balki estetik obraz sifatida ham idrok etadi. Demak, lokutiv qatlamdagi undalma shakli poetik mazmunni tashkil etuvchi asosiy vositalardan biriga aylanadi. She'ring yakuniy misralari ushbu obrazning semantik salmog'ini yanada kuchaytiradi:

Chi q jahonning minbariga,

marhabo, o'zbek tilim!

Mazkur misralarda qo'llangan «chiq» fe'li buyruq-istak maylida ifodalangan bo'lib, grammatik jihatdan harakatga undash ma'nosini bildiradi. Biroq poetik kontekstda u oddiy buyruq mazmunidan chiqib, ramziy chaqiruv vazifasini bajaradi. Shoir bu orqali o'zbek tilining xalqaro ilmiy, madaniy va ma'naviy makondagi nufuzini oshirish g'oyasini ilgari suradi. Shunday qilib, grammatik shakl poetik maqsad bilan uyg'unlashib, keng ijtimoiy-falsafiy mazmunni ifodalaydi. Misradagi «minbar» leksemasi ham o'zining bevosita lug'aviy ma'nosi bilan chegaralanmaydi. Badiiy kontekstda u e'tirof, nufuz va umuminsoniy muloqot makonining ramziga aylanadi. Natijada «chiq» va «minbar» birliklari o'zaro semantik bog'lanib, tilning taraqqiyot sari intilishi va uning jahon miqyosidagi mavqeni ifodalovchi poetik obrazni shakllantiradi. She'r yakunidagi «marhabo» undovi esa baholovchi-ekspressiv mazmunni kuchaytiruvchi lisoniy vosita sifatida xizmat qiladi. U nafaqat quvonch va olqishni ifodalaydi, balki butun she'r davomida bosqichma-bosqich shakllangan poetik mazmunni emotsional jihatdan yakunlaydi. Demak, undov, undalma va buyruq maylidagi fe'lning o'zaro uyg'unligi lokutiv qatlamning sintaktik hamda pragmatik imkoniyatlarini namoyon etadi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, Jamol Kamol poetik nutqida murojaat konstruksiyalari faqat kommunikativ vazifa bilan cheklanmaydi. Ular matnning semantik markazini tashkil etib, lisoniy shakldan poetik mazmunga o'tish jarayonining muhim mexanizmlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihat shoir poetikasida til obrazining estetik va g'oyaviy qimmatini belgilaydi.

Muhokama

Jamol Kamol she'riy nutqining muhim xususiyatlaridan biri sintaktik qurilmalarning poetik mazmun bilan uzviy bog'langanligidir. Tahlil qilinayotgan she'riy matnda misralarning sintaktik tashkil etilishi, ularning o'zaro parallel joylashuvi hamda takroriy konstruksiyalar mazmunning izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Shu bois poetik mazmunni anglashda nafaqat alohida leksik birliklar, balki ularning sintaktik munosabatlarini ham hisobga olish zarur. She'ring dastlabki ikki misrasi:

Sen jahondin bahramand,

Sendin jahon ham bahramand

sintaktik paralelizm asosida qurilgan. Har ikki misrada gap bo'laklarining joylashuvi o'zaro mutanosib bo'lsa-da, ularning semantik

yo'nalishi teskari harakatni yuzaga keltiradi. Birinchi misrada harakat subyekti sifatida **o'zbek tili** nazarda tutilsa, ikkinchi misrada **jahon** faol semantik komponentga aylanadi. Natijada ikki tomonlama manfaat va o'zaro ta'sir munosabati ifodalanadi. Mazkur sintaktik parallelizm she'rning kompozitsion yaxlitligini mustahkamlash bilan birga, poetik g'oyaning mantiqiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

She'rning keyingi misralarida sintaktik qurilish bosqichma-bosqich emotsional intensivlikni kuchaytiradi. Xabar mazmunidagi gaplardan murojaat va undov ohangiga o'tilishi poetik dinamikaning izchil rivojlanishini ko'rsatadi. Ayniqsa, yakuniy misralardagi:

*Chiq jahonning minbariga,
marhabo, o'zbek tilim!*

konstruksiya matnning kulminatsion nuqtasini hosil qiladi. Buyruq-istak maylining qo'llanishi, undalma va undovning bir sintaktik butunlikda kelishi she'rning ekspressivligini oshirib, poetik mazmunni emotsional jihatdan yakunlaydi. Bu yerda sintaktik shakl faqat grammatik vazifani emas, balki estetik ta'siri kuchaytiruvchi vositani ham bajaradi.

She'riy matnda qisqa, ixcham va ritmik jihatdan muvozanatli gaplarning qo'llanishi poetik fikrning aniq va ta'sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Sintaktik ixchamlik natijasida har bir leksik birlikning semantik salmog'i ortadi, o'quvchi e'tibori esa asosiy poetik obrazlarga yo'naltiriladi. Bu esa lisoniy shaklning mazmun yaratish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi.

Jamol Kamol she'riyatida poetik sintaksis mustaqil badiiy vosita sifatida namoyon bo'ladi. Sintaktik parallelizm, murojaat konstruksiyalari, buyruq-istak shakllari hamda undov birliklarining o'zaro uyg'unligi natijasida poetik mazmun bosqichma-bosqich shakllanadi. Demak, badiiy matnning lokutiv qatlami faqat leksik vositalar yig'indisidan iborat emas, balki grammatik va sintaktik qurilmalar bilan yaxlit tizimni tashkil etib, poetik mazmunning yuzaga kelishida faol ishtirok etadi.

Tahlil natijalari badiiy matnning lokutiv qatlami poetik mazmunni hosil qiluvchi ko'p bosqichli lisoniy tizim ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, poetik mazmun alohida leksik birlik yoki grammatik shaklda tayyor holda mavjud bo'lmaydi. U matn tarkibidagi lisoniy vositalarning o'zaro semantik, sintaktik va pragmatik munosabati natijasida yuzaga keladigan yaxlit hodisadir. Shu jihatdan lokutiv qatlam badiiy matnning tashqi shakli ko'rinishidan ko'ra kengroq mazmun kasb etib, poetik tafakkurning til vositalari orqali namoyon bo'lish mexanizmini ifodalaydi. Jamol Kamol she'riyati misolida kuzatilgan lisoniy hodisalar shuni ko'rsatadiki, muallif poetik ta'sirchanlikni murakkab tasviri

vositalar hisobiga emas, balki umumiste'moldagi so'zlarning kontekstual imkoniyatlarini faollashtirish orqali yuzaga keltiradi. Natijada oddiy leksik birliklar estetik baho, ramziy mazmun va milliy-madaniy qadriyatlarini ifodalovchi poetik belgilar darajasiga ko'tariladi. Bu esa shoir poetikasining muhim xususiyatlaridan biri sifatida baholanishi mumkin. Tadqiqot shuningdek, lisoniy shakl va poetik mazmun o'rtasidagi munosabatning chiziqli emasligini ham ko'rsatadi. Poetik mazmunning shakllanishi leksik tanlov, sintaktik tashkil, murojaat konstruksiyalari va kontekstning o'zaro uyg'unligi asosida kechadi. Demak, badiiy matni faqat alohida til birliklari doirasida emas, balki ularning funksional yaxlitligi nuqtai nazaridan o'rganish lingvopoetik tahlilning ilmiy samaradorligini oshiradi. Mazkur kuzatishlar badiiy matni tahlil qilishda lokutiv qatlamni dinamik tizim sifatida talqin etish zarurligini ko'rsatadi. Bunday yondashuv nafaqat poetik mazmunning hosil bo'lish qonuniyatlarini aniqlash, balki muallifning individual uslubi va poetik tafakkurini til vositalari orqali tavsiflash imkoniyatini ham kengaytiradi.

Xulosa

Mazkur tadqiqot badiiy matnda lokutiv qatlamning poetik mazmunni shakllantirishdagi o'rni va funksional imkoniyatlarini Jamol Kamol she'riyati misolida yoritishga qaratildi. O'tkazilgan lingvopoetik tahlil natijasida poetik mazmunning shakllanishi til birliklarining oddiy nominativ vazifasi bilan emas, balki ularning kontekstual faollashuvi, o'zaro semantik munosabati va sintaktik uyg'unligi bilan belgilanishi aniqlandi. Tahlil qilingan she'riy matnda leksik birliklar, murojaat konstruksiyalari, buyruq-istak shakllari va sintaktik parallelizm birgalikda poetik mazmunni hosil qiluvchi yaxlit lisoniy tizimni tashkil etadi. Bu esa badiiy matnning estetik qiymati uning mazmunidangina emas, balki mazkur mazmunni yuzaga keltiruvchi lisoniy shakllarning tashkil topish usuli bilan ham uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari lokutiv qatlamni badiiy matnning tarkibiy elementi sifatida emas, balki poetik tafakkurning til vositalarida namoyon bo'lishini ta'minlovchi faol mexanizm sifatida baholash imkonini berdi. Mazkur yondashuv o'zbek lingvopoetikasida badiiy matnning ichki semantik tuzilishini tadqiq etishga oid izlanishlarni boyitishi hamda Jamol Kamol poetikasining lisoniy xususiyatlarini chuqurroq o'rganish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusidagi tadqiqotlarda lokutiv qatlamning illokutiv va perllokutiv qatlamlar bilan o'zaro aloqadorligi, shuningdek, poetik diskursda pragmatik omillarning mazmun hosil qilishdagi ishtirokini qiyosiy aspektida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – Москва: Языки русской культуры, 1999. – 896 с.
2. Бенвенист Э. Общая лингвистика. – Москва: Прогресс, 1974. – 447 с.
3. Лотман Ю. М. Анализ поэтического текста. Структура стиха. – Ленинград: Просвещение, 1972. – 271 с.
4. Новиков Л. А. Художественный текст и его анализ. – Москва: Русский язык, 1988. – 304 с.
5. Ревзина О. Г. Язык и дискурс художественного произведения. – Москва: Индрик, 2010. – 456 с.
6. Eco U. The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts. – Bloomington: Indiana University Press, 1979. – 273 p.

7. Leech G. N. A Linguistic Guide to English Poetry. – London: Longman, 1969. – 238 p.
8. Halliday M. A. K., Hasan R. Language, Context and Text: Aspects of Language in a Social-Semiotic Perspective. – Oxford: Oxford University Press, 1989. – 126 p.
9. Jamol Kamol. Saylanma. Anvarmirzo hikoyatlari. V qism. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 304 b.
10. Yo'ldoshev B. Matn lingvistikasi asoslari. – Toshkent: Fan, 2007.
11. Safarov Sh. Pragmalingsvistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008.
12. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... – Toshkent: Mumtoz so'z, 2012.